

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ADIZOVA NILUFAR ISTAMOVNA

**ERKIN VOHIDOV DOSTONLARINING LINGVOSTILISTIK VA
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Adizova Nilufar Istamovna

Erkin Vohidov dostonlarining lingvostilistik va milliy-madaniy xususiyatlari 5

Adizova Nilufar Istamovna

Lingvostilisticheskie i natsionalno-kulturnye osobennosti poemy Erkina
Vaxidova 23

Adizova Nilufar Istamovna

Linguistic and national-cultural peculiarities of Erkin Vahidov's poems..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok o‘publikovannykh rabot
List of published works 49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ADIZOVA NILUFAR ISTAMOVNA

**ERKIN VOHIDOV DOSTONLARINING LINGVOSTILISTIK VA
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3PhD/Fil 1323 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.


Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.


Ilmiy rahbar:	Yuldasheva Dilorom Nigmatovna pedagogika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Bahriddinova Bashorat Madiyevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Haydarov Anvar Askarovich filologiya fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti


Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/04.06.2021 Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «23-mart» soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14; faks: (+99865221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1354 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «11» mart kuni tarqatildi.
(2023 yil «11» mart da 2 -raqamli reestr bayonnomasi).


G.N.Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor


N.T.G'aybullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent


M.K.Abuzalova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asr boshlarida matnni antropotsentrik nuqtayi nazardan o'rganishga e'tibor kuchaydi. Turli janrdagi asarlarning lingvostilistik xususiyatlarini izohlash, badiiy matnlarning semantik-stilistik imkoniyatlarini aniqlash, muayyan ijodkor asarlari nutqini lingvistik jihatdan tadqiq etish soha rivojini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylandi. Zero, dunyo tilshunosligida, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham tilning nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto sun'iy intellekt bilan uzviy munosabatini o'rganayotgan yangi-yangi yo'nalishlarning shakllanishi fan oldiga muhim vazifalar qo'yimoqda.

Dunyo tilshunosligi tilning jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri, his-tuyg'ulari bilan uzviy bog'liqligi tufayli inson ongida paydo bo'lgan tushunchalar hamda sub'yektiv munosabatlar nutq orqali yuzaga chiqishi aniqlangan. Keyingi yillarda til tizimiga antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida yondashilib, lisoniy imkoniyatlarning badiiy nutq sifatida voqelanishini tadqiq etuvchi lingvostilistikaning nazariy hamda amaliy jihatlariga xos qonuniyatlarni tasniflash, muayyan badiiy matnlar asosida umumiy lingvopoetik imkoniyatlarni *ijodkor uslubi~til imkoniyati~badiiyat mahsuli* mushtarakligi tamoyili asosida o'rganish bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda milliy istiqloldan keyin "bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi"¹ muhim masalaga aylandi. Har bir ijodkor o'z ijodi orqali tilning boy imkoniyatlarini o'ziga xos tarzda ifoda etadi. So'zning mislsiz qudratini kashf qiladi, uni betakror ifoda birliklari bilan boyitishga hissa qo'shadi. Xalq tilini qo'llashi, yangi topilmalar asosida uning boyligini, go'zalligini oshirishi orqali o'z ona tilining benihoya boyligini namoyon etadi hamda shu millat vakillarini tilini sevishga, uni ardoqlashga, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishga undaydi. Ma'naviyatimizning bir bo'lagi, milliylikning asosi bo'lgan tilimizni asrash, uni milliylik zaminidan uzilmagan holda tadqiq etish va rivojlantirish, til imkoniyatlari va sara badiiy asarlar orqali insoniyatning o'z-o'zini, o'zgalarni, qolaversa, butun olamni anglashi kabilarni o'zaro aloqadorlikda, uzviylikda atroflicha tadqiq etish, milliy-madaniy yuksalish uchun ham muhim hisoblanadi. Nozikta'b so'z ustasi – shoir, publitsist, tilshunos, aniqrog'i, el sevgan ijodkor Erkin Vohidov dostonlarini lingvostilistik nuqtayi nazardan tadqiq etish ham shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 26-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони // www.lex.uz

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa ma‘muriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida V.V.Vinogradov, L.V.Sherba, A.I.Yefimov, R.A.Budagov, G.O.Vinokur, A.A.Lipgart, M.N.Kojina, A.V. Kirtayeva, L.A.Golyakova, G.V.Volovoy, V.I.Tyupa, O.I.Fedotov, A.A.Stepanenko, S.S.Sermyagina² kabi olimlarning badiiy matn tadqiqi hamda ijodkor uslubiga oid ko‘zga ko‘rinarli ishlari mavjud.

O‘zbek tilshunosligida A.Shomaqsudov, S.Mamajonov, M.Sodiqova, N.Mahmudov, E.Qilichev, A.Abdullayev, B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov, J.Lapasov, G‘.Abdurahmonov, B.Yo‘ldoshev, S.Karimov, R.Normurodov, G.Rixsiyeva, S.Boymirzayeva, M.Qosimova, Sh.Mahmadiyev, M.Yo‘ldoshev, D.Xudoyberganova, Sh.Toshxo‘jayeva, D.Tajibayeva, M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshev, X.Abdurahmonov³ kabi olimlarning olib borgan tadqiqotlari ham ushbu sohadagi ishlarning birmuncha yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi.

²Виноградов В. В. Избранные труды. Язык и стиль русских писателей. От Карамзина до Гоголя. — М.: Наука, 1990. — 182 с.; Щерба Л.В. Современный русский литературный язык. М., 1974. -347с.; Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. — М., 1957. 448с.; Будагов Р.А. Литературные языки и языковые стили. М., 1967. -374с.; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. М., 1991. - 448с. ; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дисс. докт. филол. наук. - М., 1996. -656с.; Кожина М.Н. О понятии стиля и месте языка художественной литературы среди функциональных стилей. Пермь, 1962. - 62с.; Киртаева А.В. Лингвопоэтика многокомпонентных атрибутивных словосочетаний в английской драме XVI-XVII веков. Автореферат кандидат филологических наук.-М., 2001; Голякова Л.А. Текст. Контекст. Подтекст. —Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2002. —231 с.; Воловой Г.В. Художественный подтекст как средство раскрытия характеров героев в повестях «Бэла» и «Максим Максимыч» в романе М.Ю. Лермонтова «Герой нашего времени»: дис. ... канд. филол. наук. — Махачкала, 2003. —114 с.; Тюпа В.И. Художественность // Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / гл. науч. ред. Н.Д. Тмарченко. —М.: Intrada, 2008. —358 с.; Федотов О.И. Основы теории литературы: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Гуманит, 2003—272 с.; Степаненко А.А. Подтекст в прозе А.П. Чехова 1890-х – 1900-х гг.: дис. канд. филол. наук. —Сургут, 2007.—133 с.; Сермягина С.С. Подтекст в прозе М.Булгакова лингвостилистический аспект: дис. ... канд. филол. наук.—Кемерово, 2007. —203 с.;

³ Шомаксудов А. Мукирий сатираси тили. —Т., 1971.; Мамажонов С. Услуг жилолари.—Т.:Адабиёт ва санъат, 1972.; Содиқова М. Фейл стилистикаси. —Т., 1975.; Махмудов Н. Сўз эстетикаси. —Т.: Фан, 1981.; Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси//Ўзбек тили ва адабиёти,1985. — №6.; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. —Т.. Фан, 1982.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. —Т.:Ўқитувчи, 1992.; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши.— Т.: Фан,1983.; Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили.— Т.: Ўқитувчи, 1990.; Абдурахмонов Ф. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1992.—№5.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Фил.фанлари докт.диссер.автореф.— Т., 1993.; Каримов С.А. Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. Ўқув кўлланма. — Самарқанд: СамДУ, 1994.; Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил.— Т.:Ўқитувчи, 1995.; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари:

Jumladan, Erkin Vohidov ijodiga oid olib borilgan tadqiqot ishlaridan S.Maksumovaning “Erkin Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik ishi⁴da shoir ijodida konnotativ ma’noning ifodalanish usullari va vositalari, til birliklarining pragmatik xususiyatlari hamda ijodkorning ulardan foydalanish mahorati she’rlari misolida tahlil etilgan. G. Keldiyorovanning “O‘zbek badiiy nutqida antiteza” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi⁵da shoir she’rlarida antitezaning o‘rni va uning o‘ziga xos ifoda xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

B.Yo‘ldoshev va Q.Xalilovlar tomonidan yaratilgan “E.Vohidovning frazeologizm qo‘llash mahorati haqida” nomli monografiya⁶da shoir uslubining frazeologizmlar bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, shoir ijodiy kamolotini namoyon etuvchi qator badiiy-publitsistik asarlar ham yaratilgan⁷ligi ma’lum. Biroq Erkin Vohidov dostonlari va ularning lingvostilistik hamda milliy-madaniy xususiyatlari alohida monografik tadqiqot sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiq ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2020-2024-yy.) yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Erkin Vohidov dostonlarining lingvostilistik va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek mualliflik dostonlari nutqiga xos lingvostilistik xususiyatlarni aniqlash va ularning milliy o‘zlik ruhini tarbiyalashdagi rolini tavsiflash;

Erkin Vohidov dostonlarining fonetik-fonologik xususiyatlarini aniqlash;

mualliflik dostonlari ijodkorning so‘z va iboralardan mohirona foydalanish va uslubiy mahoratini ochib beruvchi omil ekanligini shoir dostonlari asosida dalillash;

Фил.фанлари номз.диссер.авторeref.–Т., 2000.; Рихсиева Г. Лингвопoeтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адабиёти, 2003.–№2.; Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Фил.фанлари номз.диссер.авторeref.– Самарқанд, 2004.; Қосимова М.Б. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол.фанл.номзод.диссер.автореферати.–Т., 2007; Махмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар: Фил.фанлари номз.дис. авторeref.–Т., 2007; Йўлдошев М. Бадий матн лингвопoeтикasi. Т.: Фан, 2008; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи.– Т.: Фан, 2013; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопoeтикasi: Фил. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD).–Фарғона, 2017.; Тажибаева Д.Э. XX асрнинг сўнги чораги ўзбек шеъриятида пoeтик услуб муаммолари: Фил.фанлари номз.диссер.авторeref.– Фарғона, 2018.; Қурбонова М. Мустақиллик даври дostonлари лингвопoeтикasi: Фил. фанлари номзоди. диссер.авторeref.– Фарғона, 2019; Абдурахмонов Х., Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати. –Т., 2000.

⁴ Максумова С. Эркин Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Фил. фанлари номз. диссер. авторeref.–Т., 2012.

⁵Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза (Эркин Воҳидов шеърияти мисолида): Фил. фанлари номз. дис. авторeref. –Т., 2000.

⁶Йўлдошев Б., Халилов Қ. Э.Воҳидовнинг фразеологизм қўллаш маҳорати ҳақида. – Самарқанд, 2007.

⁷ Қурбон Шукур. Эркин Воҳидов сабоқлари. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2016. – 160-б.; Мирвоҳидов Р., Мирзаев Т.(Тўпловчи). То қуёш сочгайки нур. Э.Воҳидов: ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. –Т.: Ўзбекистон, 2018.; Назаров Б. XX аср ўзбек адабиётида Э. Воҳидов ижодининг ўрни ва аҳамияти//Ўзбек тили ва адабиёти, 2007.– №1.

ijodkor dostonlarida milliy-madaniy ruhning morfologik, sintaktik vositalar orqali ifodalanishini hamda shoirning murojaat shakllaridan stilistik maqsadlarda foydalanish mahoratini asoslash;

“Erkin Vohidov dostonlarida metaforalar qisqacha izohli lug‘ati”ni tuzish.

Tadqiqotning ob‘yektini sifatida Erkin Vohidovning “Nido”, “Ruhlar isyoni”, “Palatkada yozilgan doston”, “Quyosh maskani”, “Orzu chashmasi”, “Toshkent sadosi”, “Baxmal”, “Taxt va baxt” kabi dostonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini shoir dostonlarida qo‘llanilgan badiiy-estetik tasvirni yuzaga keltiruvchi leksik-stilistik vositalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, taqqoslash, statistik, umumlashtirish, alohidaliklarni aniqlash kabi tadqiq metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

Erkin Vohidov dostonlarida badiiy nutqining fonostilistik, leksik-semantik jihatdan rang-barang ekanligi, morfologik me‘yorlarga mos kelishi, sintaktik-stilistik muvofiqlikning ta‘minlashi, lingvoestetik qiymatni saqlashi kabilar metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, oksimoron hodisalari bilan bog‘liq holda aniqlangan;

shoir dostonlarida o‘zbek tili ichki imkoniyatlarining lug‘aviy birlikka xos belgi-xususiyatlari, yangi birliklar yasash imkoniyatiga ko‘ra kengligi affiksial va kompozitsion okkazonalizmlar, morfologik hamda sintaktik xususiyatlarining kommunikativ, grammatik va stilistik xususiyatlarini ёритиш орқали асосланган, сўзларнинг shakl va ma‘no munosabatlari omonimlik, sinonimlik, antonimlik, graduonimik, gipo-giperonimik, partonimik munosabatlari vositasida ilmiy dalillangan;

onomastik birliklarning badiiy matnda konnotativ-dennotativ ma‘no kasb etishi, intertekstuallik hosil qilishdagi ijodkor individual uslubiga xos bo‘lgan struktural o‘zgarishlar ahamiyati, badiiy akslanishi, matn butunligini shakllantirishda leksik-semantik tizimda muhim o‘rin tutishi shoir dostonlaridagi milliy-madaniy ruh bilan sug‘orilgan nomlar orqali isbotlangan;

shoir dostonlarida uslub individualligini, nutq ta’sirchanligini boyitishda sintaktik parallelizm, emotsionallik, ritorik so‘roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza hamda o‘xshatishlar kabi poetik-sintaktik, funksional-stilistik o‘ziga xosliklarni ta‘minlovchi sintaktik vositalar lingvostilistik aspektida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar:

mualliflik dostonlari nutqiga qo‘yilgan lingvostilistik talablar tasniflangan; Erkin Vohidov dostonlarining fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik hamda frazeologik, sintaktik xususiyatlari tahlil etilgan;

mualliflik dostonlari ijodkorning so‘zdan mohirona foydalanish va uslubiy mahoratini ochib beruvchi omil ekanligi dalillangan;

ijodkor dostonlarida milliy-madaniy ruhning namoyon bo‘lish imkoniyatlari hamda ularning lingvostilistik xususiyatlari kompleks o‘rganilgan;

“Erkin Vohidov dostonlarida metaforalar” qisqacha izohli lug‘ati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq muammosining aniq qo'yilganligi, ilmiy ish davomida ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, metodologik asosga egaligi, qo'yilgan masalalar aniqligi, chiqarilgan nazariy fikr va xulosalardan amaliyotda foydalanilganligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsiya natijalarining ilmiy qimmati o'zbek milliy lingvostilistikasini boyitishga xizmat qilishi, matn tilshunosligi, she'riy matnning lingvistik tahlili, nutq madaniyati va uslubiyati, o'zbek tili uslubiyati tarixini o'rganish, leksik-semantik va lingvostilistik tizimda yangi tadqiqotlarni amalga oshirish, badiiy matn tilini lingvokognitiv tadqiq etish, leksikografik lug'atlarni tartib berishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishiga xos amaliy ahamiyat keyingi yarim asrda o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari bo'yicha seminar yoki maxsus kurslar o'tish, ixtisoslikka asoslangan fanlar ta'limi, o'zbek tilining tarixiy lingvostilistikasini yozish, "Lingvokulturologiya", "O'zbek tili lingvostilistikasi", "Hozirgi o'zbek tili", "Matn lingvistikasi" fanlaridan darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratish, o'zbek adabiyoti tarixidagi yorqin ijod vakillarining o'zbek tili rivojidagi o'rnini ko'rsatish va targ'ib etishda, milliy istiqlol mafkurasi asoslarini boyitishda xizmat qilishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Tadqiqotda Erkin Vohidov dostonlarining lingvostilistik va milliy-madaniy xususiyatlari tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Erkin Vohidov dostonlarida badiiy nutqning fonostilistik, leksik-semantik jihatdan rang-barang ekanligi, morfologik me'yorlarga mos kelishi, sintaktik-stilistik muvofiqlikning ta'minlanishi, lingvoestetik qiymatni saqlashi kabilar metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish kabi hodisalar asosida aniqlangan nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida OT-F1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish" nomli fundamental loyihasini bajarishda (2017-2022-yy) foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2023-yil, 12-yanvardagi 01/4-76-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shoir qo'llagan nutq uslublari bilan bog'liq fikrlar amaliy loyihaning takomillashuviga xizmat qilgan;

shoir dostonlarida o'zbek tili ichki imkoniyatlarining lug'aviy birlikka xos belgi-xususiyatlari, yangi birliklar yasash imkoniyatiga ko'ra kengligi affiksial va kompozitsion okkazonalizmlar, morfologik hamda sintaktik xususiyatlarining kommunikativ, grammatik va stilistik xususiyatlarini yoritish, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlari – omonimlik, sinonimlik, antonimlik, gipo-giperonimik, dialektik, tarixiylik asosida ilmiy dalillangan qarashlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida BV-Atex 2018 (143) – "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental tadqiqotni bajarishda (2018-2020-yy)

foydalanilgan. (A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2023-yil, 12-yanvardagi 01/4-77-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'zlik ruhini tarbiyalashiga doir ma'lumotlar bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar fundamental loyihaning mukammallashishiga xizmat qilgan;

onomastik birliklarning badiiy matnda konnotativ-dennotativ ma'no kasb etishi, intertekstuallik hosil qilishdagi ijodkor individual uslubiga xos bo'lgan struktural o'zgarishlar ahamiyati, badiiy akslanishi, matn butunligini shakllantirishda leksik-semantik tizimda muhim o'rin tutishi shoir dostonlaridagi milliy-madaniy ruh bilan sug'orilgan nomlar orqali asoslangan xulosalardan Buxoro telekanalining "Assalom Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza", "Adabiy muhit" teleko'rsatuvlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2021-yil 17-iyundagi 1/169-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallar mazmunining rang-barang nazariy faktlarga tayanishi ta'minlangan va ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi oshirilgan.

shoir dostonlarida uslub individualligini, nutq ta'sirchanligini boyitishda sintaktik parallelizm, emotsionallik, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza kabi poetik-sintaktik, funksional-stilistik o'ziga xosliklarni ta'minlovchi sintaktik vositalar lingvostilistik aspektda asoslangan xulosalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi qoshida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Nilufar" adabiy to'garagi mashg'ulotlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limining 2022-yil 14-dekabdagi 30-sonli ma'lumotnomasi). Natijada poetik tilning lisoniy-nutqiy xususiyatlarini farqlash, frazeologik va sintaktik birliklarning she'riy matnda tutgan o'rnini aniqlash yuzasidan ko'nikmani shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, bitta lug'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop ettirish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika, shuningdek, 8 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birgalikda dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

“Mualliflik dostonlari lingvostilistik tadqiqot ob’yekti sifatida” deb nomlangan birinchi bob ichki uch paragrafdan iborat bo‘lib, unda mualliflik dostonlari nutqiga qo‘yilgan lingvostilistik talablar, Erkin Vohidov dostonlarida lingvistik hodisalarning milliy o‘zlik ruhini qo‘zg‘atishdagi roli hamda muallif dostonlarida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati tahlilga tortilgan.

Bobning *“Mualliflik dostonlari nutqiga qo‘yilgan lingvostilistik talablar”* nomli birinchi bandida dastlab doston atamasi xususidagi mulohazalarga e‘tibor qaratildi. Doston forscha so‘z bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “shon-shuhrat”, “sarguzasht”, “ta’rif”, “maqto‘v” kabi ma’nolarni ifodalaydi va u xalq og‘zaki ijodi hamda yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Zamonaviy mualliflik dostonlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyot an’analari zamirida shakllandi va o‘z taraqqiyoti davomida ularning mazmun-mohiyatini belgilovchi muhim jihatlarni saqlab qoldiki, “o‘zbek dostonchiligi hayotga, shu kunning dolzarb, o‘tkir ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammolariga hozirgidek yaqin kelmagan edi.”⁸

Mualliflik dostonlari nutqiga qo‘yilgan lingvostilistik talablarni quyidagicha belgiladik: 1) *mualliflik dostonlari nutqining fonostilistik jihatdan rang-barang bo‘lishi*; 2) *mualliflik dostonlari nutqining leksik-semantik jihatdan boy va pishiq bo‘lishi*; 3) *mualliflik dostonlari nutqining morfostilistik jihatdan morfologik me‘yorlarga mos kelishi*; 4) *mualliflik dostonlari nutqida sintaktik-stilistik muvofiqlikning ta‘minlanishi*; 5) *mualliflik dostonlari nutqida lingvoestetik qiymatni saqlashga erishish*.

Tabiiyki, bu talablarning har biri o‘z doirasida ichki guruhlariga bo‘linib ketadi.

Badiiy matnda har bir til birligi stilistik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va shu orqali muallifga xos individual uslub qirralari yuzaga chiqadi. “Individual uslub o‘ziga xos estetik idrokka va didga ega bo‘lgan chinakam yuksak iste’dod sohibining ijodidagina bo‘rtib ko‘rinuvchi belgidir. Badiiy adabiyot tilida o‘sha asar yaratuvchisining o‘ziga xos individual xususiyatlari ko‘rinar ekan, ijodkor uslubi ikki muhim nuqtada – idrok etish hamda ifoda etish uslubida namoyon bo‘ladi.”⁹ Bu Erkin Vohidovning “Orzu chashmasi”, “Palatkada yozilgan doston”, “Ruhlar isyoni”, “Toshkent sadosi”, “Quyosh maskani”, “Baxmal”, “Taxt va baxt” kabi dostonlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero, mazkur dostonlarda milliy mentalitetni ifoda etuvchi lingvokulturemalar – *milliy mentalitetni ifoda etuvchi ayrim leksik birliklar, mifologema va arxiteplar, paremiologik fondlar, frazeologik birliklar, ramzlar, o‘xshatishlar, metaforik birliklar, nutqiy etiket* kabilar ijodkorning badiiy tafakkur tarzi, tilning uslubiy imkoniyatlari zamirida yuzaga chiqqan.

“Erkin Vohidov dostonlarida lingvistik hodisalarning milliy o‘zlik ruhini tarbiyalashdagi roli” nomli ikkinchi bandida Erkin Vohidov dostonlarida milliy-madaniy va mental xususiyatlarni, milliy o‘zlik ruhini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan birliklarni kuzatishga harakat qildik: 1) *milliy mentalitetni*

⁸ Норматов У. Достон ва замон// Шарқ юлдузи, 1987. –№10. Б.173.

⁹Қосимова М.Б. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол.фанл.номзод.диссер.автореферати.–Т., 2007. Б.23.

ifoda etuvchi ayrim leksik birliklar; 2) mifologema, arxiteplar; 3) paremiologik birliklar; 4) ramzlar; 5) o'xshatishlar; 6) metaforik birliklar, metonimiya, sinekdoxa; 7)perifrazalar; 8)pretsedent birliklar shular jumlasidandir.

Shoirning "Palatkada yozilgan doston"i badiiy-publitsistik uslubda yaratilgan. Unda muallif rasmiy axborotlar, ta'sirchan reportajlar, hayotiy voqealarni, fojia dahshatlarini yonma-yon tarzda ifoda etar ekan, shuurida yaratuvchanlik, bunyodkorlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, sabr va matonat jo'sh urgan tanti xalqning oddiy bir falokatdan dovdirab qolmasligiga ishonadi. Va "Bu ishlar o'tmishga Berildi bukun, Devorlar darz ketdi, Yuraklar butun. Binolar yiqildi, Odamlar yashar. Do'stlarin chaqirar **Hasharga** shahar.", "Butun xalq qo'zg'aldi, Ham burch, ham **hashar**. Qishda palatkada qolmas hamshahar...", degan chorlovlar bilan hammani bunyodkorlikka undaydi.

"**Hashar**" yig'in, to'da; yig'ilish, anjuman kabi ma'nolarni ifodalab, biror ishni bajarishda ko'pchilikning ixtiyoriy, beg'araz ishtiroki, ixtiyoriy ko'magidir. Xalqimizda biror-bir ishni hashar, ko'mak yo'li bilan amalga oshirish an'anasi qadriyat sifatida haligacha davom etib keladi. Bu odamlarimizning ahillik, birdamlik, odamgarchilik kabi milliy-madaniy o'zligini namoyon etadi. Muallif ham ushbu birlikni o'zbek xalqiga xos mehnatkashlik, mehr-oqibat, og'ir kunda bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi olijanob xislatlarini namoyon etish uchun qo'llaydi.

Mifologemalar ham muayyan millatning milliy-madaniy qarashlarini aks ettirishi bilan badiiy matnga ta'sirchanlik hamda mazmun bag'ishlaydi. Ular asarning "bosh qahramoni, uning muhim personaji yoki vaziyati bo'lishi mumkin. Uning asosida, asosan, arxetip yotadi. Arxetip–kishilar ongida paydo bo'ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg'un obrazdir"¹⁰.

Ma'lumki, **non** – o'zbek xalqi uchun qadim zamonlardan buyon qadrlanib kelinadigan aziz ne'mat. Xalqimiz unga rizq-nasiba, tiriklik manbai sifatida qaraydi. Uzoqroq yerga ketish oldidan non tishlab qoldirish, ushug'ini qushlarga sepish, yerga tushsa, bosmasdan darhol terib olish ham mifologik qarashlar asosida vujudga kelgan. Shunga ko'ra, "**non**" arxetipi Erkin Vohidov ijodida ham rizq-nasiba, me'daga tegmaydigan ne'mat yoki halollik ramzi sifatida ko'zga tashlanadi: *Ko'k jildimda alifbe va bir burda non, Birinchi bor qadam qo'ydim maktab tomon.* ("Nido" dostonidan) *Yozibsiz, pok so'mdan non isi kelar, Nopok milliondan qon isi kelar* ("Taxt va baxt" dostonidan).

Qadim-qadimlardan buyon **suv** ham har bir tirik jon uchun bebaho hayot manbai sifatida qadrlanib, e'zozlanib keladi. Hozir ham borliqni usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chashma, buloq esa suvning bitmas-tuganmas manbai, tiriklik belgisi sifatida miflarning muhim arxetipi sifatida tasvirlangan. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidan keltirilgan quyidagi parchalar asosida badiiy matnda suvning hayot manbai, tiriklik gavhari arxetipi sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin:

Keza-keza oxir toldi, Umid uzdi jonidan. Bir payt nogoh chiqib qoldi Bir chashmaning yonidan. Yiqilganча suvga behol Lab cho'zganda tashna tan,

¹⁰ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Ma'ruzalar kursi. –Toshkent: Universitet, 2014. B.26.

*To‘lqinlandi birdan zilol, Sado chiqdi **chashmadan**: “Shoshma, yo‘lchi, Ichursan, bas, Muzdek, tiniq, to‘laman. Ammo bilki, Oddiy **suvmas**, **Obihayot** bo‘laman. Azob chekding ko‘p sahroda, Mayli, To‘yib ichib ol. Meni ichgan bu dunyoda Mangu yashar bezavol.* (“Ruhlar isyoni” dostonidan)

Shoirning “Orzu chashmasi” dostoni roviyning “Qora dengiz ertagi” bilan boshlanishi yoki undagi voqealar, asosan, dengiz, suv, chashma bo‘ylarida sodir bo‘lishidan ham ko‘rish mumkinki, asarda *mifologik ifoda uslubi* ustuvorlik qiladi. Muallif “*chashma*”, “*buloq*”, “*dengiz*” kabi birliklar vositasida, asosan, qahramon kechinmalari bilan bog‘liq goh sokin, beg‘ubor, xotirjam damlarni, goh hamdardlik holatlarini namoyon etadi, goh qahramonning baxtsiz, bechorahol, nochor ahvolini tasvirlaydi hamda syujetni harakatga keltiruvchi hodisalarni yorqin bo‘yoqlarda aks ettiradi. Masalan, *Shirin-shirin o‘ylarin o‘ylab O‘ltirardi **Chashma** qoshida. O‘ltirardi sochin taroqlab, Aks etardi ko‘zguda jamol. Kelajagin, Baxtin so‘roqlab Goh **chashmaga** berardi savol. Qomatining bandasi sarvlar Boshi uzra tashlardi soya, Mayingina shildirab **suvlar** So‘ylar edi Qizga hikoya...*

*Shunda **chashma** Tilga kirdi-yu, So‘ylay ketdi chuldirab biyron: “Ishq dard emas, Ishq saodat-ku, Tutma aslo sevgingni pinhon!*

*...U keldi-yu, Qurigan **chashma** – Ko‘zlaridan oqib ketdi yosh.* (“Orzu chashmasi” dostonidan)

Umuman olganda, muayyan millatning leksikasidan o‘rin olgan har bir til birligi milliy, madaniy mentalitetni ifoda etishi bilan xarakterlidir. Erkin Vohidov ijodida bu kabi birliklarga alohida e‘tibor qaratilgan. *Choyxona, askiya, latifa, tanbur, tor, chirmanda, Navro‘z, nay, ro‘mol, cho‘pon, do‘ppi, non, kulgu, tuproq, Ona Yer, buloq, suv parisi* kabi birliklar shular jumlasidan.

Muallif xalqimiz donishmandligini ifoda etuvchi *paremiologik birliklardan* ham o‘rni bilan foydalanadi. Ular xalqimizga xos madaniy, ma‘naviy va axloqiy qarashlarni aks ettiruvchi hamda milliy-madaniy o‘zlik ruhini namoyon etuvchi muhim omil, tilning bitmas-tuganmas boylik manbai sifatida nutqni bezab, ta’sirchanligini oshirishga hissa qo‘shadi. Masalan, *Qo‘shiq bor: Nimadan boshlanar Vatan? Ma‘nosin izlayman men ham o‘shaning, Balki boshlanadi u ostonadan, Deydilar: **O‘z uying-o‘lan to‘shaging.*** (“Quyosh maskani” dostonidan)

Ushbu maqol orqali muallifning “har qancha hashamatli bo‘lmasin boshqa uy kishi uchun o‘z uyiday qulay, qadrli bo‘lmaydi. Zotan, odam faqat o‘z uyida emin-erkin bo‘ladi” degan fikrlari aks etadi.

Yoki ushbu maqolda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan axloqiy qarashlar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, farzand uchun otasiga o‘xshashi muhim emas, balki chin insoniy fazilatlarini o‘zida mujassam etishi, haqiqiy inson nomini oqlashi muhim ekanligi aytiladi: *Bobolarning hikmati Hayotga yorug‘ yo‘ldir. “**Otang bolasi bo‘lma Odam bolasi bo‘l**” der.* (“Nido” dostonidan)

Muallif dostonlarida maqollarning asl ma‘nolari saqlangan holda o‘zgargan shakllari ham qo‘llanadiki, shoir ular asosida o‘ziga xos ifoda tarzini namoyon etadi. Masalan, *Inson shohmi, gado **Odam sutin ichgandir.** Tiriklikda qaysi podsho Toj-u taxtdan kechgandir?* (Aslida: “Inson xom sut ichgan bandadir”) (“Ruhlar isyoni” dostonidan)

El boshiga nogoh Kelgan bu kulfat Bir-biriga qildi Hammani ulfat.
(Aslida: “Do ‘st kulfatda bilinadi”) (“Palatkada yozilgan doston”dan)

Shuningdek, shoir dostonlarida o‘zining barqarorligi, xalq qarashlari, madaniyati, milliy mentalligining qadimiy ildizlariga borib tutashuvchi, muayyan assotsiatsiyalar asosida vujudga kelgan *ramzlar*, betakror *o‘xshatish* va *ko‘chimlar*, *perifraza* yoki *pretsedent birliklar* ham go‘zal ifoda va boy mazmun ifodalashi asosida tahlilga tortiladi.

Jumladan, *metaforalar* ham poetik matnlarda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos xususiyatlarni ifoda etadi. Metafora so‘z yoki iborani o‘xshashlik yoki o‘xshatishga asoslangan ko‘chma ma’noda qo‘llashdir. Buni muallif dostonlari misolida kuzatish mumkin:

Hayotda bolalarning “urush-urush” o‘yinlariga ko‘p guvoh bo‘lish mumkin. Ular beg‘ubor go‘dak tasavvuri bilan urushning haqiqiy qiyofasini tasavvur ham qilolmaydilar. Biroq “Nido” dostonining lirik qahramoni sifatida qalbida urushdan qolgan yaralarning bitmay qolgan izlari tufayli shoir buni yaqqol tasavvur eta oladi. Zotan, muallifning yetimlik, sargardonlik, sog‘inch va iztiroblar iskanjasida ulg‘ayishiga mash‘um urush sababchidir. Muallif urush qiyofasini, fojialarini shunchaki oddiy tasvirlamaydi, balki lirik qahramon sifatida murg‘ak qalbida his qilganidek *“olov sochayotgan qotil”* sifatida aks ettiradi. Masalan, quyidagi misralarda qo‘llanilgan *“o‘lim sochmoqdadir”*, *“qotil”* (urush) , *“Tizzasidan olib ketgan emish o‘q”* (oyog‘i tizzasidan kesilgan), *“qora xat”* (o‘lim xabari) metaforalari orqali muallif urushning qurbonsiz bo‘lmasligini ifodalasa, *“yutmoqda olov”*, *“qon kechib”* birliklari asosida jangchilarning urush olovlari ichida jon olib-jon berayotganiga ishora qiladi. *“Ellarning sof tilagi”* (*tinchlik*), *“ofat solmasin”* kabi ifodalar vositasida esa shoir xalqimizga xos tinchliksevarlikni hamda uning jon tomirlarini titratuvchi har qanday urushga nisbatan cheksiz nafratini ifodalaydi:

Olis sohillarda Ufqdan nari O‘lim sochmoqdadir Elga beayov, Shahar, qishloqlarni Yutmoqda olov. O‘sha olis yurtida Qon kechib hozir Otang hayot uchun Jang qilayotir. Ellarning erk degan Sof tilagi deb, Jahonning nurafshon Kelajagi deb, Ofat solmasin deb Olamga qotil, Otang uzoq yurtida Jang qilayotir. (“Nido”dostonidan)

Rustamning akasi urushdan qaytdi, Qo‘ltiqtayog‘i bor, Bir oyog‘i yo‘q, Rustam aytib berdi: Ataka payti Tizzasidan olib ketgan emish o‘q. Xol aka qaytgandi uyga to‘satdan, O‘g‘li, dadajon, deb chopib kelibdi. Ota quchay desa qo‘li yo‘q ekan, tik turgan joyida yig‘layveribdi. Darsga kelmay qoldi Tunov kun Tal‘at, Muallim urishsa turaverdi jim. Dadasidan kelgan ekan qora xat. Hammamiz yig‘ladik hatto muallim... (“Nido”dostonidan)

Umuman olganda, Erkin Vohidov ijodida bolalikka, yoshlikka bag‘ishlangan dilgir she‘rlar ko‘p. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, shoirning ijodiy merosidagi dostonlarda ham bolalik yoki bolalik bilan bog‘liq tasvirlarga alohida o‘rin ajratilgan. *“Ko‘tarib suron”*, *“kezar zo‘r bo‘ron”*, *“jang guldurosi”*, *“o‘lim sochmoqdadir”*, *“yov quzg‘unlari”*, *“ingrayapti ona-Yer”*, *“vujudim tilka”*, *“dahshat ummoni”*, *“g‘urbat yo‘llari”*, *“bag‘rim o‘yib”*, *“olov bolaligim”*,

“*vujudimni chulg‘ar alanga*”, “*bo‘g‘zimga tiqilar hayajon*” kabi o‘ziga xos metaforalar bilan “to‘yingan” satrlar orqali ijodkor bolalikning sho‘x, o‘ynoqi, betashvish damlarini *yeb, yutib yuborgan*” suronli “*qora urush*” obrazini shu qadar samimiy, sodda misralarda o‘zaro zidlantiradiki, o‘quvchining etlari jimirlab, o‘zining tinch zamonda yashayotganiga shukrona aytadi. Poetik matnning “joni” bo‘lgan shoir uslubiga xos “*yaralangan, majruh dunyo*”, “*bashar jarohati*”, “*titratamiz ko‘ku zaminni*”, “*kiprigimga uyqu sira ilinmaydi*”, “*murg‘ak fikrim yetaklaydi xayollarga*”, “*Onam qo‘ynin to‘ldiraman savollarga*”, “*yigirmanchi asr nidosi*” kabi betakror metaforalar muallifning barcha dostonlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi hamda mazmunning o‘quvchi qalbiga oson kirib borishini ta‘minlaydi.

Biroq inson qanchalar alam chekmasin, ayriliq, g‘am-sitam iskanjasida to‘lg‘onmasin, uning yuragi tub-tubida yilt etgan yorug‘lik hamisha uchqun sochib turaveradi. Bu insonning, insoniyatning yashashga bo‘lgan ishtiyoqi, tiriklikka tashnaligi belgisidir. Ijodkor buni hamisha his etib turadi, ba‘zan buni sezmay turgan o‘quvchiga tuyg‘ular rangini “tanitadi”:

Ana, derazangga qo‘nibdi hilol, Boshingga egilib so‘rmoqchi savol, Sening kiprigingga Sochmoq bo‘lib zar, Hilol tegrasida O‘ynar yulduzlar. (“Nido” dostonidan)

Muallif asar qahramonini (o‘zini) derazaga “qo‘ngan hilol”dan, “hilol tegrasida o‘ynayotgan yulduzlar”dan zavqlanishga, to‘g‘rirog‘i, yashashga chorlaydi. Yoki ushbu misralar orqali shoir lirik qahramonni kishilarning cheksiz iztiroblariga sabab bo‘lgan, oilalarni, go‘daklar baxtini kemptik qilib qo‘ygan urush aziyatlarini – “*bashar jarohati*” ning hali nurli kunlar kelib, bitib ketishiga ishontiradi:

Bu kunlar, albatta, O‘tib ketadi. Bashar jarohati Bitib ketadi. Ona Yer qaytadan Yasharar bir kun. Olam nur qo‘ynida Yashnar lolagun...

Vaqt kelar, ulg‘ayib, Odam bo‘larsan. Ilm olib sohibi Olam bo‘larsan. Sen bizlar ko‘rganni Ko‘rmagaysan hech, G‘urbat yo‘llaridan Yurmagaysan hech. Olam to‘la quyosh, Qalbing to‘la nur. Oydin bir zamonda Yashaysan masrur. (“Nido” dostonidan)

Umuman olganda, shoir dostonlarida “*vujudim tilka*”, “*bag‘rim o‘yib*”, “*qora o‘q*”, “*yurak qonim*”, “*dunyo qayg‘usi*”, “*yaralangan, majruh dunyo*”, “*zo‘r titroq*”, “*achchiq alamlar*”, “*o‘lim sochmoqda*” kabi inson kechinmalarini ifoda etuvchi antroposentrik (inson~borliq munosabati) hamda “*yulduzlar daryosi*”, “*chayqalar samo*”, “*fazo kemalari*”, “*zamonning tebranishlari*”, “*nur qo‘ynida*”, “*uchib kirar yulduzlar*”, “*yulduzlar bazmi*”, “*nurlar koshonasi*”, “*falakning ostonasi*”, “*somon yulduzlari*”, “*ufq manglayi*”, “*hilol tegrasi*”, “*qo‘nibdi hilol*”, “*o‘ynar yulduzlar*”, “*yoqut surayyo*” kabi kosmomorfik (inson~osmon jismlari munosabati) metaforalar ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Bobning “*Muallif dostonlarida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati*” nomli uchinchi bandida shoirning so‘z qo‘llashni san‘at darajasiga ko‘tara olganligi dalillanadi. Zero, Oybek ta‘biri bilan aytganda, poeziyada “...so‘zlar chertib, tanlab olinishi, har bir so‘z uzukka qo‘yilgan qimmatbaho tosh kabi porlashi

lozim”¹¹. E.Vohidov o‘zining so‘z sezgisi orqali so‘zga zargarona yondoshadi. Ulardan lirik qahramon kechinmalarining go‘zal ifodasi va iqrori, voqealar tasvirining takrorlanmas bo‘yog‘i va o‘quvchiga ta‘sir etuvchi bebaho “qurol” sifatida foydalanadi. Jumladan, shoir dostonlarida atoqli otlar bilan bog‘liq *O‘zbekiston, Toshkent, Farg‘ona, Yevropa, Xo‘qandi latif, Turkiston, Bozorguzar mahalla, Buxoro, Samarqand, Hindiston kabi qator toponimlar* hamda *Alisher Navoiy, Amir Temur, H.Olimjon, Yesenin, Pushkin, Gyote, Fuzuliy, Usmon Nosir, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Zamaxshariy yoki kishining ismi, sharifi, nasl-nasabi, kasbini, tavoze‘ va murojaat birliklarini qo‘shish asosida ifoda etuvchi Shayx Muhammad Hasan ibn Muhammad Jalol Sharqaviy hazratlari, Muftiy hazratlari, Elchi janoblari, Munavvar qori, Haydarqul ota, Xosiyat bibi, Shayx(Xoja) Bahovuddin Naqshbandiy, cho‘pon Haydarqul, kolxozchi Haydarqul, shahzoda Said Fikratxon ibn Said Ozodxon antroponim* shakllari syujetga beqiyos mazmun, ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik, faxr-iftixor, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini baxsh etadi.

Shuningdek, muallif muayyan *rangni ifodalovchi sifatlar* (oq, qora, ko‘k, moviy, qirmiz, qizg‘imtir, qip-qizil, alvon, lolagun, lojuvard, firuza...) dan; betakror musiqa jarangini yodga soluvchi *takrorlardan*, fikrga kuchli emotsionallik baxsh etuvchi *uyushiq bo‘laklar* hamda belgining me‘yordan ortiqligi (*milliard-milliard*), ma‘no kuchaytirish (*yig‘lay-yig‘lay*), umumlashtirish (*ko‘cha-ko‘yga, tepa-to‘yga*) kechinmalar ifodasi (*yayrab-jo‘shib, sho‘x-u bearmon*) tarzida namoyon bo‘luvchi, ijodkor uslubining o‘ziga xos jihatlarini ifoda etuvchi til birliklaridan ham mohirona foydalanadi.

Masalan, *takrorlar* mumtoz adabiyotda “*takrir*” (takror, takrir arabcha so‘z bo‘lib, takrorlash deganidir) shaklida qo‘llanadi.¹²Ular misralarda so‘zlarni takror keltirish orqali ma‘noni kuchaytirish, ta‘kidlash, kitobxon e‘tiborini qaratishga hissa qo‘shadi hamda matnning musiqiyliigi, jarangdorligi va ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. Masalan, shoir sovcilarning kelishini quyidagicha tasvirilaydi:

Birisining qo‘lida dunyo, Birisida yoshlik va qudrat, Biri elda tengi yo‘q dono, Biri esa Tanho xushsurat. Yana biri sohibkor bog‘bon,...(“Orzu chashmasi” dostonidan)

Hanuz eslab yonar yuzlarim, Hanuz eslab yig‘lar ko‘zlarim, Hanuz eslab o‘rtanar vijdon... (“Baxmal” dostonidan)

Dostonlar asosida shoirning so‘z qo‘llash mahoratini aniqlash maqsadida ayrim birliklarning chastotaviy tahlili olib borilganda, foiz hisobida quyidagi natijalar ko‘zga tashlandi:

- Ot so‘z turkumi (atoqli otlar) – 40%;
- takrorlar – 20%;
- uyushiq bo‘laklar – 18%;
- rangni ifoda etuvchi sifatlar – 12%;
- juft va takroriy so‘z shakllari – 10%.

¹¹ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент: Шарқ -2008, Б.104.

¹² Жаҳонов К. Мумтоз шеърят латофати.– Бухоро: Дурдона-2014.– Б.61.

“*Erkin Vohidov dostonlarining lingvostilistik xususiyatlari*” deb nomlangan ikkinchi bob ichki to‘rt paragrafdan iborat, unda muallif dostonlarining fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik xususiyatlari hamda ijodkor dostonlarida qo‘llangan okkazional hosilalar lingvostilistik jihatdan tahlil qilingan.

Bobning birinchi bandida ijodkorning *alliteratsiya* (undoshlar takrori), *assonans* (unlilar takrori), *geminatsiya* (undoshlarni qavatlash) hamda *tovush o‘zgarishi* kabi fonetik usullardan foydalanish mahorati misollar bilan dalillanadi. Zotan, inson so‘z ma‘nolarini tovushlar zanjiri va ularning talaffuzi orqali anglaydi. Shu sabab nutq tovushlari boshqa barcha til birliklari singari nafaqat fikrlarni bayon etish, balki his-tuyg‘u va ruhiy holatlarni ham ifoda etishning beqiyos vositasidir. Poetik matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Buni ta‘minlashga esa nutqning eng kichik birliklari bo‘lmish nutq tovushlarini tovlantirib, o‘rni bilan, chertib-chertib qo‘llash orqali erishiladi.

Alliteratsiya so‘zlar, bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishi bo‘lib,¹³ sharq mumtoz she‘riyatida betakror musiqiylik baxsh etuvchi vosita sifatida keng qo‘llangan ushbu hodisa “tavze” (*ar. taqsim qilmoq, joylashtirmoq*) san‘ati deb yuritiladi¹⁴. Shoir dostonlarida alliteratsiyaning sof (to‘liq) shakli kam uchrasa-da, to‘liqsiz shaklining poetik ohanrabolik hamda emotsionallikni ta‘minlash imkoniyatidan mohirona foydalanadi hamda misralarning o‘quvchi yodida oson saqlanishi ta‘minlanadi. Masalan, *Yuragiga shohning qanot- Berar edi g‘azallar. Qanot nadir – Qayta hayot Berar edi g‘azallar. Lekin shohning Qay gunohi, Qay zulmiga intiqom- Bir tong ko‘kka chiqdi ohi, Qo‘ldan tushib sindi jom.* (“Ruhlar isyoni” dostonidan)

Kim edim, kim bo‘ldim deymen, o‘y layman. Shahrim, Bir o‘g‘lingdek men ham yurakdan Umrim sarhisobin senga so‘y layman. (“Quyosh maskani” dostonidan)

Assonans “Tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati”da (frans. assonance-ohangdoshlik) “Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik”, deb berilgan. *Ular* misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning ohangdoshligi asosida poetik matn musiqiyliги hamda fikrlar uyg‘unligini ta‘minlaydi. Masalan, *Roviy aytar: Allazamon- Allaqaysi ma‘voda Falokatga uchrab karvon Poyoni yo‘q sahroda, Bu nogohon Tasodifdan Barcha o‘tib dunyodan-Shu tasodif amri bilan Omon qoldi bir odam.* (“Ruhlar isyoni” dostonidan)

*Geminasiya*da ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanadiki, ijodkor bunda ma‘noni kuchaytirish, qat‘iylikni uyg‘otish, ishonchni oshirish, belgining me‘yordan oshiqqligini ifodalash, qahramon his-hayajonini aks ettirish, ta‘sirchanlik yoki ko‘tarinki ruh, da‘vat, harakatning shiddati, oniyliги ifodasi uchun qo‘llaydi. Masalan, ushbu misralarda tovushlar qo‘shoqlanishi usulidan shoir lirik qahramonning dushmanga nafrati, g‘azabini ifoda etish, ma‘noni kuchaytirish maqsadida foydalangan: *Bu yurtga tig‘ olib kirgan har battol Tig‘ning zarbasidan*

¹³ С. Султонсаидова, Ў. Шарипова. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Юрист-медиа маркази-2009. – Б.40.

¹⁴ Жаҳонов К. Мумтоз шеърят латофати. –Бухоро: Дурдона.2014. – Б. 50.

qaddi bukilgan. *Sening ostonangda Gitlarning qattol Vahshiy galalari tutday to'kilgan.* (“*Quyosh maskani*” dostonidan)

